



**“AZIZM” ROMANIDA AXLOQIY INQIROZ VA SHAXSIY  
MANFAAT TO’QNASHUVI**

*Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti  
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti  
Filologiya va tillarni o’qitish(o’zbek tili)  
ta’lim yo’nalishi 3-bosqich talabasi  
**Jalilova Shohida Ravshan qizi***

**ANNOTATSIYA:** *Ushbu maqolada Mopassanning “Azizim” romanidagi bosh qahramon – Jorj Dyuro obrozining shakillanish jarayoni tahlil qilinadi.*

*Muallif asarda XIX asr oxiri Fransiya jamiyatidagi axloqiy inqiroz, ijtimoiy adolatsizlik va matbuat alamidagi karrupsiyani fosh etadi. Maqolada roman sujeti, personojlar psixologiyasi hamda Mopassanning realistik uslubi asosida yozuvchi jamiyatidagi ikkiyuzlamachilik va martaba ortirish yo’llarini qanday ko’rsatganiyoritiladi.*

*Asarda erkak va ayol munosabatlari, kuchli psixologik porttiritlar orqali insoniy qadriyatlar haqida chuqur mushohida yuritiladi. Shuningdek yozuvchining realistik uslubi, jurnalistika olamining ichki ziddiyatlari va ayollar bilan munosabatlaridagi ulitan yondashuv tahlil markazida turadi. Maqola Mopasson ijodining mazkur asar orqali ifodalangan tanqidiy – realistik yo’nalishini ochib berishga xizmat qiladi*

**KALIT SO’ZLAR:** *Mopasson, Jorj Dyuro, realizm, ayol obrazi, sevgi va manfaat, psixologik tahlil, XIX asr Fransiya*

**KRISH**

*Biror inson hayoti to’g’ri yo’ldan emas, aylanma yo’ldan yuksaladi. Ba’zan esa bu yo’l – yuksalish emas, qadriyatlar yemirilishiga yetaklaydi. Mopassonning “Azizm” romani ana shunday murakkab yo’llar, ichki va tashqi kurashlar, niqoblar va niyatlar to’qnashgan dunyo haqida hikoya qiladi. Asar qahramoni Jorj Dyuro – go’yoki jozibali, o’ziga ishongan, ammo chuqurroq qaralganda maqsad yo’lida*



vijdonini qurbon qilishga tayyor odam obrazdir. U muhabbatni vosita, ayollarni zinapoya sifatida ko'radi, jamiyat esa unga bu o'yin uchun maydon bo'lib xizmat qiladi.

“Azizm” bu bir insonning hayoti orqaligina emas, balki axloqiy inqirozga yuz tutgan bir davrning badiiy ko'zgusidir. Har bir sahifasi insonni oy'ylantiradi, muvaffaqiyat uchun nima berishga tayyormiz, qalbimizmi yoki haqiqiyatning o'zi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Mopassan Gi dening “Azizin” romani frnsuz adabiyotining realizm yo'nalishida yozilgan eng yorqin namunalaridan biridir.

Asar XIX asr oxiridagi Fransiya jamiyatidagi ijtimoiy tengsizlik, axloqiy burilish va ommaviy axborot vositalaridagi korrupsiyani ochib berishga qaratilgan. Asarning bosh qahramoni – Jorj Dyuario o'z hayotini oddiy askarlikdan boshlagan, lekin o'zining jozibasi, ayollar bilan munosabat qilishda hiyla va ayyorlik orqali jamiyatning yuqori qatlamiga ko'tarilgan shaxsdir. U halollik, mehnat yoki iste'dod evaziga emas, balki odamlarni aldash, ayollarni qo'lga kiritish orqali mashhurlikka erishadi. Bu jihatlar orqali yozuvchi jamiyatdagi axloqiy inqiroz va martabaparastlikni keskin tanqid qiladi. Asarda realistik uslub, kuchli hayotiy voqealar, ijtimoiy muhit va odamlar munosabati tabiiy tasvirlangan. Mopassan o'ziga xos ravishda jamiyatdagi nohaqlikni ochib berar ekan, syujetni sodda va ta'sirchan tarzda quradi. Qahramonlar murakkab psixologik holatlarda tasvirlanadi, ayniqsa Jorjning o'zgarishlari uning ichki olamidagi ziddiyatlarni ochib beradi.

Ayol obrazlar ham asarda ma'lum o'rin tutadi. Ular jamiyatda ikkilamchi mavqeyga ega bo'lishsada, roman davomida Dyuaroning muvaffaqiyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Mopassan ayollar orqali erkaklar jamiyatidagi kuch va zaiflikni ko'rsatadi. Bu romanda yozuvchi o'z davri jamiyatiga tanqidiy nigoh bilan qaraydi, insoniy qadriyatlar qadrsizlanyotgan muhitda shaxsiy manfaat ustuvor bo'lib borayotganini fosh etadi.

### **MUHOKAMA**

“Azizm” romani o'qir eksnmiz, insoniyat jamiyati qanchalik taraqqiy etmasin ba'zi illatlar – mansabparastlik, ikkiyuzlamachilik, manfaatni do'stlikdan



ustun qo'yish hamisha mavjud bo'lanini anglaymiz. Mopasson ushbu asar orqali oddiy inson qanday qilib jamiyat ierorxiyasida yuqoriga ko'rsatadi, lekin bu yo'l halollikdan emas, imkonni egallay olganlardan o'tadi. Jorj Dyuario shunchaki bitta odam emas, u bir davr timsoli. Uning obrazi orqali yozuvchi ko'p narsa aytmoqchi bo'ladi. U kambag'allikdan qutulishni istagan, lekin buning uchun halol mehnatni emas, boshqalarni qulay vosita deb bilgan odamdir. Eng achinarlisi, jamiyat bunday odamlarni qoralash o'rniga ularga yo'l ochib beradi. Dyuaroning har bir bosqichi yangi bir ijtimoiy fojia. Romanning yana bir muhim jihati ayollar obrazidir. Dyuario ayollarni ko'tarilish vositasi deb biladi, ular orqali maqomga erishadi. Biroq bu ayollar o'zlari ham ijtimoiy bosim ostida yashaydi. Bu holat bizga jamiyatdagi gender tengsizligi va ayollarning jamiyatdagi o'rnini ham o'ylashga majbur qiladi.

“Azizm” bugungi zamon uchun ham dolzarb. Asarda matbuotdagi sotqinlik, soxta obro', pul va kuch orqali obro' toposh – hozirgi axborot asrida ham ko'p uchraydi. Yozuvchi qalamida jamiyatning eng og'riqli nuqtalari ifodalangan. Odamlar qanday qilib shon-shuhrat ortidan yurib, o'z “men”ini yo'qotadi, qanday qilib axloqni, vijdonni qurbon qiladi.

Shunday qilib, “Azizim” – bu faqat bir insonning hayoti emas, balki jamiyat muommolarining ko'zgusidir. Mopasson bu roman orqali o'quvchini ogohlikka, hushyorlikka, o'z tanlovlariga ma'suliyat bilan yondashishga undaydi. Kitobni o'qib chiqqach har bir o'quvchi o'zidan so'rashi mumkin: “Men shunday odatlarni qo'llayapmanmi? Men o'zim uchun kim bo'lib qolayapman”.

### **XULOSA**

Mopassonning “Azizm” romani – bu ko'rinishda silliq, ammo ich-ichidan chirigan jamiyatning aniq va tanqidiy portretti. Asar insonni faqar syujet orqali emas, balki tub ma'nodagi savollar bilan hayratda qoldiradi. Shon-shuhrat, aslida nimaga tayanadi? Haqiqat va yolg'onning chizigi qo'yiladi. Jorj Dyuario obrazi – bu yuksalishga – ijtimoiy muvaffaqiyat emas, axloqiy inqiroz namunasi. Roman orqali Mopasson bizga shuni ko'rsatadiki, jamiyatda haqiqat emas, ko'rinish, halollik emas, imkoniyatlar qadrlansa, bunday “aziz” lar ko'payib boraverdi. Asarni yakunlar ekanmiz, shunday xulosaga kelamiz, odam o'z tamoyillariga sodiq qolmasa, qanday



cho'qqiga chiqmasin ichki tubida bo'sh qoladi. "Azizim" – bu faqat bir davr tanqidi emas, balki har qanday jamiyat uchun saboq bo'la oladigan adabiy haqiardir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mopasson Gyuy de. Azizim(Bel-Ami). Toshkent.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot.
2. Olimova N. Fransuz realizmi va XIX asr adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti 2010
3. Jo'rayeva M. "Adabiyot nazariyasi asoslari". Toshkent 2020
4. Karimov N. "Adabiyotshunoslikka kirish". Toshkent 2008
5. Sayfiyev H. "Realizm va jamiyat": Fransuz romanchiligi tahlili. Toshkent:Akademnashr 2015
6. Goston Bachelard. Til poltics of spac1.